XORAZM "GO'RO'G'LI" TURKUMI DOSTONLARIDA BADIIY TASVIR VOSITALARI

Razzaqberganova Oltinoy Faxraddin qizi
Hazorasp tuman To'lqin FM xususiy maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi,
E-mail: oltinoyrazzoqberganova@gmail.com

Qabul qilindi: 19.10.2025
Ko'rib chiqildi: 20.10.2025
Tasdiqlandi: 21.10.2025

Kalit so'zlar:
xalq og'zaki ijodi, doston tili, badiiy tasvir vositalari, o'xshatish, sifatlash, antiteza, mubolag'a, litota, ritorik so'roq, o'g'uz lahjasi

Keywords:
Folklore, epic language, means of artistic axpression, simile,adjective, antithesis, hyperbole, litotes, rhetorical question , Oguz dialect.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm dostonchilik an'analari, "Go'ro'g'li" turkumliligining Xorazm dostonchilik san'atida tutgan o'rni, eposning Xorazm variantlariga xos badiiy xususiyatlari, o'xshatish, sifatlash, antiteza, mubolag'a, litota kabi ifoda tasvir vositalarning Xorazm "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qo'llanganligi eposdan olingan parchalar asosida yoritib berilgan.

Abstract: This article discusses the traditions of Khorezm epic poetry, "Gorogli" the role the series in the art of Khorezm epic writing, thee artislic features specific to the Khorezm variants of the epic and the use og figurative language such as simile, characterization, antithesis, hyperbole and litotes in the Khorezm "Gorogli" series of epics are highlighted based on excerpts from the epic.

Xalq ma'naviyatining ko'zgusi bo'lgan folklor namunalari, xususan, uning ko'p qatlamli epik tafakkurini o'zida mujassamlashtirgan xalq dostonlarini o'rganish kelajak avlodni tarbiyalashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Dostonlar ma'lum obrazlar orqali inson tuyg'ularini obyektlashtiradi. Bularga yurt manfaatlari yo'lidagi qahramona kurash, chinakam muhabbat, shaxslar va butun xalqlar do'stligi, ona vatan, xalq yo'lida fidoiylik tuyg'ularini ulug'lash kabi insoniy kechinmalarni olishimiz mumkin.Xalqimizning boy madaniy merosi bo'lgan folklor asarlarini yig'ish, asliyatiga zarar yetkazmagan holda yozib olib, nashr qilish, o'rganish, tadqiq qilish o'tmishdan to bugungi kunimizgacha folklorshunoslik ilmining dolzarb masalalaridan bo'lib kelgan. Xususan, Xorazm dostonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda Hodi Zarifov, To'ra Mirzayev, Omonulla Madayev, Malik Murodov, Muhammad

Nosir Saidov, Safarboy Ro'zimboyev, Shomirza Turdimov, San'at Sariyev, Nasiba Sabirova kabi bir qator olimlarimiz tomonidan ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Professor Safarboy Ro'zimboyev ilmiy ishlarida eposning qozoq, qoraqalpoq, ozarbayjon versiyalari, San'at Sariyev ilmiy tadqiqot ishlarida turkum dostonlarining og'zaki, qo'lyozma va toshboshma nusxalari qiyosiy o'rganilgan.

Yozma adabiyotdagi kabi xalq og'zaki ijodiyotida ham badiiy asarning ta'sirchanligi, ifodaviyligi, emotsional kuchi uning til xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Har bir asarning syujet va kompozitsiyasi, umuman, shakli til orqali tasvirlanadi. Binobarin, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari Xorazm variantlaridagi epik qarashlar, an'anaviy qarashlar, an'anaviy formulalar va stereotiplar (turg'un iboralar) asrlar osha o'g'uz qabilalari tili negizida shakllangan.

Dostonlar variantlari mantida ifoda tasvir- vositalaridan epitet va o'xshatishlar an'anaviylik bilan chambarchas bog'liq. Negaki, bu badiiy elementlar streotip (turg'un ibora) xarakterida bo'lib, barcha o'zbek dostonlarida bir xil qo'llaniladi. Epitetlar – yor go'zalligini ifodalashda, asosan, ko'proq ishlatilgan:

Tarxinoli qo'llar qani,
Gulday nozik bellar qani,
Qand-u novvot tillar qani,
Obi zilolum, bormisan.[3;256]

Eposning Xorazm varianti mahalliy xalq tili – O'g'uz lahjasining o'ziga xos ko'rinishlarida badiiy tasvir vositalari ta'sirchanligi yanada ortgan. Ifoda tasvir vositalarining o'g'uz lahjasiga xos dialektizmlar ta'sirida taviriylik, ta'sirchanligi yanada ortgan. Ayniqsa, bu xususiyat voqealar bayonida saj' san'ati , she'riy misralardagi sifatlash, shaxslantirish orqali yorqin namoyon bo'lgan: *"Sarvigul ochilib sochilib, to'rt tarafa tovlanib, ishva bilan noz etib, qaddi-kamolini g'oz etib, suhbat bilan soz etib, qish kunlardi yoz etib yubora berdi. Ana endi Xandonbek lashkarboshiding uyina tez-tez kelib, qizding ko'nglini olib, gapdi bir joya qo'yib bir o'q bilan eki urib, Safar ko'sa bahonasi bilan bir nozaninga-da xaridor bo'lib, belni bog'lab, ko'ngildi chog'lab, o'tgan –ketgandan ko'sadi so'rog'lab, Go'ro'g'li qaytmasdan burun Chamlibelga borishdi o'ylab, kunlardi o'tkaza berdi".[3;323]*

"Go'ro'g'li" dostonlarida yozma adabiyotga xos bir qator uslubiy tasvir vositalaridan qo'llanilgan bo'lib, ular dostonda ilgari surilgan fikrlarni obrazli ifodalashga, xarakter va manzaralar yaratishga, obrazlarning muayyan

vaziyatdagi holatini va o‘ziga xos xususiyatlarni yaqqol tasvvur qilishga yordam beradi. Shulardan biri o‘xshatishdir. Har bir qahramonning xarakteri, his-tuyg‘ulari, kechinmalari o‘xshtish vositasida ayon bo‘lib, tinglovchi tasavvurida mustahkam o‘rin tutadi. O‘xshatishlar dostonda nazmda ham nasrda ham birday keladi. Masalan, Go‘ro‘g‘lini yengish uchun Chamlibelga qirq minglik qo‘shin bilan bostirib kelgan Xunxorshohning jang maydonidagi holati quyidagicha o‘xshatiladi: *... bu tolo- to‘pdan keyin nishatarini bilmasdan egasini yo‘qotgan kuchukdin bo‘lib qoldi.[3;186]*

Nazmdagi berilishi:

Bugun minibman beliga
Semurg‘ yali uchg‘il G‘irot,
U pari, Ko‘hi Qof elina
Bulutlardan oshg‘il G‘irot [3;261]

Arazlab ketgan Yunus parini ortga qaytarish uchun Ko‘fi Qoh nakoniga yo‘l olgan Avazxon G‘irotdan Semurg‘ misol parvoz qilib manzilga tezroq yetkazishni so‘raydi.

Eposning ifoda tasvir kuchini qarama-qarshi ma’nolar asosida berilgan **antiteza**lar ham samarali oshirgan:

Oshiqlarning ishi zordur, *Mudom*
ishi suhbat-sozdur, ***Hijroni***
ko‘p visol ozdur, *Bir*
kulib boq so‘zlasharmiz.[3;298]

Voqealarning ta’sirchanligini oshirish maqsadida obrazlarni bo‘rttirishga xizmat qilgan yozma adabiyotga xos badiiy ifoda vositalaridan biri – mubolag‘adan dostonlarda samarali qo‘llanilgan: *Go‘ro‘g‘li aldina qo‘yilgan bir qo‘yni to‘rt bo‘lak atib, to‘rt tishlaganda tamom atdi, qozonni go‘tarib, ikki ovurtlag’anda sho‘rvadan nom-nishon qolmadi, qatib qolgan sakkiz cho‘rakni ham go‘rdim damin tamom atdi. Sal-pal go‘zzina nur galgandin bo‘ldi.[3;246]*

Ayniqsa, jang manzaralari tasvirini chizishda mubolag‘aga boy tarzda berilgan. Masalan, uning bir o‘zi butun boshli qo‘shinga bas kela olishi, jangdagi harakatlarida bo‘rttirishlar mavjud.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarida tasviriy vositalardan litotaning ajoyib namunalarini uchratamiz. Mubolag‘ali kichraytirish bo‘lgan bu hodisa eposning emotsional kuchini oshirgan*: ...kampir aytdiki, Ho‘ Dalixiromon qizim, saning yuz tillong ros ozong‘i nos xumori tutg‘onda burnimg‘a otadig‘an nosvoy pulig‘a ham yetmaydi.[3;74]*

Eposda lirik kechinmalar bilan yo‘g‘rilgan ritorik so‘roqlar ham uchraydi:

Saringga do‘nayin Chamlibel xoni,
Saning bolam maning bolam amasmi?
Ikki yildir chekdim dog’i hijronni,
Saning bolam maning bolam amasmi? [3;254]

Shuningdek, asosan, dostonlarning nazmiy qismida insonni mardlikka, nomardga bo‘yin egmaslikka, yordamga muhtoj insonlarga yaxshilik va g‘amxo‘rlik qilishga, insonni qalbi toza halol inson bo‘lishga undovchi pand-nasihat ruhida aytilgan she’riy misralarni ko‘plab ko‘rishimiz mumkin: Jumladan, Jig‘olibekning nevarasi yosh Go‘ro‘g‘liga tarbiya ruhida she’riy tarzda ifodalagan nutqida avlodini jasurlik, bag‘rikenglik, tantilik kabi insoniy fazilatlarga ega bo‘lishini xohlaydi:

Yolg‘iz bolam, olg‘il pandim, *Yurting*
tark etuvchi bo‘lma, *O‘zingdan*
g‘ayri nomardni *Minnatin*
chekuvchi bo‘lma. *Siring berma*
muhannasa, *Yolvorma*
o‘zingdan pasa, *Nomarddan*
hech mahal qarza, *Zinhor*
vaj oluvchi bo‘lma. *Jig‘alibek*
ovush-ovush, *Kulib*
o‘ynab mehmon sovush, *Urushsang*
mard bilan urush, *Qochg‘onni*
quvuvchi bo‘lma [3;48]

Darhaqiqat, bobosining bergan tarbiyasi beiz ketmadi. Epik qahramon bobosining o‘gitlariga suyangan holda mard Go‘ro‘g‘li bo‘lib yetishadi.

Xorazm “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida so‘z qatlami murakkab xususiyatga ega. Dostonlar tili, ifoda vositalari ko‘p xalq baxshilari ijodi, iqtidorining asrlar osha sayqallanib ishlangan tafakkur durdonalaridir.

Asrlar davomida og‘zaki ijod yozma adabiyotga samarali ta’sirini ko‘rsatar ekan, xalq ijodiyotining o‘zi ham yozma adabiyotning ta’siridan bebahra qolmagan. Bu ta’sir xalq she’riyati bilan aruz munosabatida ko‘rinadi. Aruz she’riy tizimi Xorazm dostonlarida respublikamizning boshqa viloyatlarida tarqalgan dostonlariga qaraganda ko‘proq qo‘llanilgan, Professor Safarboy Ro‘zimboyevning fikriga ko‘ra, yozma adabiyotdan xabardor kotiblar dostonni kitobat qilish jarayonida uning tarkibiga o‘zlarining ayrim muxammaslari va g‘azallarini kiritib yuborganlar.

Shuningdek, mumtoz adabiyot she'riy shakllarini savodli shoir – baxshilar ham dostonga olib kirishgan. Xorazm dostonlaridagi har bir she'riy parcha maxsus nomlangan kuy orqali ijro qilinadi. Ana shu an'ana ham doston tarkibida aruz vaznidagi sh'erlaning bo'lishini taqozo qiladi. Doston variantida muxammas, murabba', g'azal kabi mumtoz she'riyat shakllari uchraydi. "Avaz uylangan" dostonida Xo'pnishon parining Go'ro'g'liga dil izhorini bayon qilib aytgan qo'shig'i muxammas shaklida:

O'n to'rt yoshdan oshiq bo'ldim, mehribonim, man sango,
Ko'rmagaydim, kuymagaydim, ey sultonim, men seni Ishqning savdosini solding, ey sultonim bo'ynimo,
Ko'rmagaydim, kuymagaydim, ey sultonim, men seni,
Hasratingda yonmagaydik, shoh sultonim men seni.[3;10]

Jig'alibekning mehmondorchiligidan ko'ngli to'lgan Abdulla qalandar xursandchiligidan kuylagan she'riy misralari g'azal shaklida berilganki, natijada Xorazm dostonlariga xos yozma adabiyotning ta'siri yaqqol ko'rinadi:

O'n sakkiz ming olamni o'z nuridan xalq aylagan, Tarbiyat qiluvchi ul Qodir Ollodan o'rgilay [3;11]

Dostonlar uchun andoza hisoblangan nazm va nasr bayoni dostonning ifodalanish shakli hisoblanadi. Bu bayon shakli voealar syujet tasvirining xarakteriga ko'ra almashib kelib, tinglovchida emotsional ta'sir darjasini oshiradi. She'riy qismning nasriy qismga nisbatan ustun turishi – deyarli barcha dostonlar uchun muhim tipik xususiyatlardan biridir. Bu xususiyat , ayniqsa, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida yorqin o'z aksini topgan. "Go'ro'g'li" dostonlarida nasriy qism she'riy qismdan hajm jihatidan kam bo'lsa ham, voqealar bayonida, uning rivoji tasvirida, qahramonlar xarakterini yaratishdagi badiiylikni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi va doston tasviriyligi, emotsionalligi, obrazliligi va ifodaviyligini yaratishda she'riy qismlar bilan teng ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning ma'naviy dunyoqarashi, urf-odat va an'analari,orzu-umidlari, qahramonlik, vatanparlik, vatanga sadoqat, mehr-muhabbat kabi insoniy g'oyalarni mujassamlashtirgan xalq dostonlari badiiy uslub, poetik til jihatidan ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рўзимбоев С. Хоразм достончилиги эпик анъаналари. – Урганч: Университет, 2008. – 42 б
2. Турдимов Ш. Ўзбек мифологияси ва фолкьлори. – Тошкент: Илм ва фан, 2023. – 324 б.
3. Хоразм достонлари/ Нашрга тайёрловчилар: С. Рўзимбоев, Г. Эшжонова / Ургенч: Хоразм ,2004. – 480 б.
4. Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlari spetsifikasi, tipologiya va poetikasi: Filologiya fanlari doktorlik dis.- Toshkent, 1990. – 252 b.